

O'RTA OSIYO TUPROQLARI VA ULARNING GEOGRAFIK TARQALISHI

¹*Soataliyeva Madina Adhamjon qizi*, ²*Sarikulov Mirkomil Olimovich*

¹*Andijon davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi*, ²*Tabiiy fanlar kafedrasida*
o'qituvchisi. Andijon shahar Do'stlik ko'chasi 4 uy

[¹*madinasoataliyeva@gmail.com*](mailto:madinasoataliyeva@gmail.com), [²*sarikulovmirkomil@gmail.com*](mailto:sarikulovmirkomil@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo tuproqlari va ularning geografik tarqalishi haqida so'z boradi. Bundan tashqari O'rta Osiyoda tuproqlarning tekislikda zonallik va tog'li o'lkalarda balandlik mintaqalari qonuniyatiga bo'ysungan holda tarqalganligi tahlil qilinadi.


Kalit so'zlar: bo'z tuproqlar, lyossimon qumoqlar, gumus, zonallik, landshaft komponentlari, balandlik mintaqalari, loyqa gil

Abstract: This article will talk about the soils of Central Asia and their geographical distribution. It is further analyzed that soils in Central Asia are distributed on the plain subject to the law of zonality and highland regions.

Key words: rich soils, loamy Sands, humus, zonality, landscape components, elevation regions, muddy clay

Asosiy qism: O'rta Osiyo landshaft komponentlarining turli — tumanligi ayniqsa relyefning xilma —xilligi, qurg'oqchil, tez o'zgaruvchan iqlimi, berk havzadan iborat gidrologik xususiyati hamda o'simlik va hayvonot olamining ham o'ziga xosligi bu o'lkada turli tipdagi tuproqlarni vujudga xeltirgan. O'lka tuproqlarining hosil bo'lishida eng asosiy omil inson ta'siri hisoblanadi. Chunki asrlar davomida bu yerda kishilar tomonidan obikor dehqonchilikning rivojlantirilishi voqea tuproqlarini shakllanishiga olib keldi. O'rta Osiyoni sobiq SSSRning xom—ashyo bazasiga aylantirish maqsadida urushdan keyingi yillarda qo'riq erlami o'zlashtirishga zo'r berildi. Tabiiy bo'z tuproqlar o'rini madaniy tuproqlar egalladi. Umuman, mazkur amaliy mashg'ulot. tapshiriqlarini ochib berishda tuproqlarning tekislikda zonallik va tog'li o'lkalarda balandlik

mintaqalari qonuniyatiga bo'ysungan holda tarqalganligi tahlil qilinishi lozim. Shuningdek tuproq tiplari joylashgan hududlar aniqlanib xarita—sxemada o'z aksini topishi zarur. O'rta Osiyoda qadimdan sug'orilib dehqonchilik qilinadigan allyuvial tekisliklarda 1-3 metr qalinlikda agroirrigatsion keltirilmalar mavjud bo'lib, u sug'orish suvlarning cho'kmasi, tuproqdan yuvilgan organik moddalar va boshqa qoldiqlardan hosil bo'lgan.



. Unda allyuviydan qatlamligining yo'qligi, gumusga boyligi va bir xil mexanik tarkibdan tashkil topganligi bilan farq qiladi. O'rta Osiyoda tarqalgan lyossning tarkibi, xossasi va xusiyatlarini quyidagicha bo'lishini aniqlaydi: 1) lyossning tusi sarg'ish va och sariq (och sur) rangda bo'ladi; 2) lyoss serg'ovak (45-60 %), kovaklari diametri 3 mm gacha bo'ladi; 3) serkarbonatli lyossning tarkibida, ayniqsa kalsiy va magniy karbonatlari ko'p bo'ladi; 4) lyossning mexanikaviy tarkibida tosh, shag'al va yirik qum bo'lmaydi. Balki yirik chang zarrachalari (0,05-0,01 mm) 50-60 foizni tashkil etadi, loyqa gil (0,005 mm) zarrachalari esa 10% atrofida; 5) lyosslar tikkasiga yorilish xususiyatiga ega va suv ta'sirida cho'kadi; 6) tarkibida suvda tez eriydigan tuzlar ko'p miqdorda bo'ladi; 7)

lyosning suv o'tkazuvchanlik xossasi juda yaxshi. Tashqi ko'rinishi lyosga o'xshamasa ham yuqorida aytilgan xossalarga ega boimaganlariga lyossimon jinslar deyiladi. Tog' oldi va tog' yon bag'ri tekisligi lyossimon qumoqlar bilan to'shalgan. Adabiyotlarda lyos-qatlamliligi ko'zga tashlanmaydigan, bir xil qatlamli yotqiziqlar, lyossimon qumoqlar esa qatlamliligi yaqqol ajralib turadigan jinslar, deb ta'rif berilgan. Lyoslar tog' yaqinida, tog' oldi past-balandliklarda tarqalgan bo'lsa, lyossimon qumoqlar esa, tog' oldi past tekisliklar mintaqalarida tarqalgan. Tuproq qoplaminig hosil bo'lishi to'g'risidagi ma'lumot yunon faylasuflari, Xitoy, Hindiston va Yaponiyadagi bir necha ming yillardan beri yozib kelinayotgan yer kadastri manuskrit qo'lyozmalarida mavjud. O'rta Osiyoda esa allo malarimiz – Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Narshaxiy asarlarida bu haqda ma'lumotlar bor.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda O'rta Osiyo tuproqlari va ularning geografik tarqalishi, O'rta Osiyoda tuproqlarning tekislikda zonallik va tog'li o'lkalarda balandlik mintaqalari qonuniyatiga oid bilimlar muhim o'rin tutadi. Sababi tuproqlar geografitasini fanni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. AlibeKov L.A., Nishonov S.A. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. T. 1982.
2. K.M. Boymirzaev O'rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan, 2009 yil—100 bet
3. X.Q.Nomozov, Sh.M.Turdimetov. Ozbekiston tuproqlari va ularning evolutsiyasi. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2016, 256 bet.
4. RaximbeKov R.U, Dontsova Z.N. O'rta Osiyo tabiatining geografik o'rganish tarixi. T. 1982.